

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING XALQARO REYTING VA INDEKSLARDAGI O'RNI VA NUFUZINING ORTIB BORISHI

Sayfullayev Behruz Dilshod o'g'li

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti
Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix kafedrasi mudiri,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD)

ANNOTATSIYA

Bugun O'zbekiston ochiqlik siyosatini olib borishi natijasida xalqaro maydonda o'z obro'-e'tiborini mustahkamlab bormoqda. Bu, avvalo, qo'shni davlatlar va nufuzli tashkilotlar bilan hamkorlik faoliyati, shuningdek, davlat organlarining xalq manfaatlarini to'la ifoda etishiga qaratilayotgan e'tiborning samarasidir. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslarda sohalar bo'yicha ko'rsatkichlari va imijini ko'tarish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro reyting, indekslar, imij, jahon xamjamiyati, golaballashuv.

ПОВЫШЕНИЕ МЕСТА И РЕПУТАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В МЕЖДУНАРОДНЫХ РЕЙТИНГАХ И ИНДЕКСАХ

АННОТАЦИЯ

Сегодня Узбекистан в результате проведения политики открытости укрепляет свою репутацию на международной арене. Это, прежде всего, результат сотрудничества с соседними странами и влиятельными организациями, а также внимания государственных органов к всестороннему выражению интересов народа. В данной статье анализируются показатели Республики Узбекистан в международных рейтингах и индексах по секторам и приоритетные направления государственной политики по улучшению ее имиджа.

Ключевые слова: международный рейтинг, индексы, имидж, мировое сообщество, глобализация.

INCREASING THE PLACE AND REPUTATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN IN INTERNATIONAL RATINGS AND INDEXES

ABSTRACT

Today, Uzbekistan, as a result of pursuing a policy of openness, is strengthening its reputation in the international arena. This is, first of all, the result of cooperation

with neighboring countries and influential organizations, as well as the attention paid by state bodies to the full expression of the interests of the people. This article analyzes the indicators of the Republic of Uzbekistan in international ratings and indices by sector and the priority areas of state policy to improve its image.

Keywords: international rating, indices, image, world community, globalization.

KIRISH

O‘zbekiston izchillik bilan islohotlarni amalga oshirar ekan, milliy reytingimizni belgilayotgan agentliklar ularni munosib baholamoqda. Avvalo, reyting nima uchun kerak, degan tabiiy savol tug‘iladi. Reyting turlicha bo‘lishi mumkin, biznes reytingi, investitsiyaviy jozibadorlik reytingi va boshqalar. Har qanday davlat reytinglarda ishtirok etsa va u yuqori o‘rinda bo‘lsa, bu ushbu davlatning ochiqligi, shaffofligi hamda iqtisodiy salohiyatini namoyon etadi. Shundan kelib chiqib aytish kerakki, iqtisodiy taraqqiyotni ta’minalash uchun keng ko‘lamli islohotlar olib borayotgan va rivojlanish pallasida bo‘lgan davlatlar, albatta, reytinglarda munosib o‘rinnarni egallashga intilishi tabiiy. Negaki, bugungi zamonaviy dunyoda hamkorlik o‘rnatish istagida bo‘lgan davlatlar va tashkilotlar umume’tirof etilgan reytinglarga, albatta, e’tibor qaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLI.

Ma’lumotlarga ko‘ra, davlatlar mavqeini belgilab beradigan 100 dan ortiq xalqaro reyting va indekslar bor. Ming afsuski, ba’zi bir reytinglarda umuman o‘ringa ega emasmiz yoki quyi pog‘onalardan o‘rin olganmiz. Sababi, bu borada yagona tizim va faoliyat olib boruvchi yaxlit organ bo‘lmaganidir. Aslida o‘sha reytingda bizning real holatimiz yuqori o‘rinni egallashga munosib bo‘lishi mumkin.

Binobarin, mamlakatning xalqaro ijobjiy imiji milliy manfaatlarni samarali ilgari surishning asosiy omili va davlat farovonligini yuksaltirish hamda barqaror rivojlanish, milliy iqtisodiyotning jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan strategik masalalarini hal etishdagi eng muhim shartlaridan biridir.

Xo‘sh, imij o‘zi nima? Imij so‘zi inglizcha (image) – siymo, timsol, qiyofa tasvir, obraz, ma’nolarini anglatadi. Imij tushunchasi reyting, obro‘, mashhurlik, joziba, maftunkorlik, e’tibor, nufuz va boshqa tushunchalar bilan ham hamohang. Xususan, imij xarakteriga ko‘ra korporativ, individual, talab etiluvchi, xarizmatik, yopiq va faoliyat jabhasidagi turlari mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Keyingi yillarda O‘zbekistonning barcha ijtimoiy va iqtisodiy sohalarida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar hamda mamlakatimizning yangi, ochiq tashqi

siyosati O‘zbekiston Respublikasining jahon xamjamiyatidagi ijobiy imiji va obro‘sini mustahkamlashga xizmat qilmoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekiston izchil rivojlanayotgan, demokratik, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalari va tamoyillariga sodiq, tinchlik, insonparvarlik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik hamda davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro hurmat va hamkorlik g‘oyalarini faol targ‘ib qiluvchi davlat sifatida dunyoda keng e’tirof etilmoqda.

Xalqaro maydonda O‘zbekistonning ijobiy imijini samarali mustahkamlash va bu jarayonning barqarorligini ta’minalash uchun qator chora va tadbirlar ko‘rilmoxda.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Mamlakatimizning jahon hamjamiyatida ijobiy e’tirof etilishini yanada yaxshilash va O‘zbekistonning salmoqli imij salohiyatidan ustuvor iqtisodiy, ijtimoiy, investitsiyaviy, ilmiy, ma’rifiy, madaniy va boshqa vazifalarni amalga oshirishda samaraliroq darajada foydalanish borasida davlat muassasalari faoliyatini jadallashtirishning ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu yo‘nalishdagi faoliyat davlat va jamoatchilik tuzilamalari va institutlarining yaqindan hamkorligi va muvofiqlashtirilishi orqali mutazam ravishda olib borilishi lozim.

Xalqaro reyting agentliklari o‘z tahlillarida 2016 yilda hokimiyatga Shavkat Mirziyoyev kelishi bilan kelgusida iqtisodiyotning o‘sishini ta’minalash uchun qator iqtisodiy va institutsional islohotlar boshlanganini qayd etmoqda. Xalqaro agentliklar vakillari ham O‘zbekiston keyingi 3 yil ichida turli yo‘nalishlarda reyting pog‘onalaridan ko‘tarila boshlaganini aytib o‘tmoqdalar. Tan olish kerak, O‘zbekiston bir qator muhim xalqaro reyting va indekslarda keyingi o‘rnlarni egallab kelayotgan edi.

Xususan, Juhon Bankining yillik “Biznes qilish” reytingida O‘zbekiston 74-o‘rinda qayd etilgan. Korrupsiya bo‘yicha har yili tuziladigan Xalqaro Transparensi indeksida 2018 yilda 180 davlat ichidan 158-o‘rinni egallagan. Siyosiy-huquqiy reyting va indekslarda mamlakatimiz o‘rnlari nisbatan quyi pog‘onalarda. Masalan, So‘z erkinligi va hisobdorlik indeksida 191-o‘rinda, Normativ sifat indeksida 184-o‘rinda, Korrupsiyani nazorat qilish indeksida 183-o‘rinda, Qonun ustuvorligi indeksida 182-o‘rinda, Juhon matbuot erkinligi indeksida 156-o‘rinda turibmiz. Yoki, siyosiy va diniy erkinliklar, hamda matbuot erkinligi va qonun ustuvorligini baholaydigan Freedom House tashkilotining oxirgi reytingida O‘zbekiston “Erkin emas” deya ta’rif berilgan davlatlar qatoriga kiritilgan. Holbuki, mamlakatimizning xalqaro reytinglarda ishtiroy etishi - milliy manfaatlarni samarali ilgari surishning asosiy omili va davlat farovonligini yuksaltirish hamda barqaror rivojlanish, milliy iqtisodiyotning jahon miqyosida raqobatbardoshligini oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan strategik masalalarini hal etishdagi eng muhim shartlardan biridir. Albatta, so‘nggi 3-

4 yil mobaynida ushbu sohalarni tartibga soluvchi ko‘plab qonun hujjatlari qabul qilindi, turli institutsional o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Jahon bankining O‘zbekistondagi doimiy vakili Xideki Morining ta’kidlashicha reytinglarning fikrlash ozuqasi – bu raqamlardir. Turli xalqaro reyting agentliklarining baholash uslubi turlicha. Ammo shu o‘rinda aytish lozimki, barcha reyting agentliklarining xulosalari ham aniq emas. Uning ta’kidlashicha, jahonda sanoqli xalqaro reyting agentliklari to‘g‘ri reyting yuritadi. Bular Garvard, Moody’s, Fitch va Standard & Poor’s kabi agentliklardir.

Jumladan, so‘nggi to‘rt yil mobaynida mamlakatimiz Meros jamg‘armasining «Iqtisodiy erkinlik» indeksida 52 pog‘onaga, Jahon bankining «Logistika samaradorligi» indeksida 19 pog‘onaga, «Biznes yuritish» indeksida 18 pog‘onaga ko‘tarildi. O‘zbekiston Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining «Mamlakatlarga xos xatarlarni tasniflash» tizimidagi 6-guruh mamlakatlari qatoridan 5-guruh mamlakatlari qatoriga ko‘tarildi. Jahon bankining Statistik salohiyat indeksida O‘zbekiston 2020 yilda 2019 yilga nisbatan 16 pog‘onaga ko‘tarilib, 146 ta mamlakat orasida 61-o‘rinni egallagan bo‘lsa, Jahon mamlakatlari demokratiyasi indeksida mamlakatimizning o‘rni 2020 yilda 2 pog‘onaga yuqorilab, 167 ta mamlakat ichida 155-o‘rinni egallagan. Global innovatsion indeksda O‘zbekiston jami 100 balldan 24,54 ball bilan 2015 yilga nisbatan o‘z o‘rnini 29 pog‘onaga yaxshilab, 131 ta mamlakat orasida 93-o‘rinni, Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlari orasida esa 4-o‘rinni qayd etdi. Jahon bankining “Ayollar, biznes va qonun indeksi”da O‘zbekiston xotin-qizlar huquqlari va gender tenglik bo‘yicha ahamiyatga molik islohotlarni amalga oshirgan 27 ta davlat qatoriga kiritilib, 70,6 ball bilan 5 pog‘onaga yuqorilab, 190 ta davlat orasidan 134-o‘rinni (2019 yilda – 139-o‘rin) egallagan.

Shu bilan birga, ayrim rahbarlar reytinglar bilan ishlashga yetarlicha e’tibor qaratmayotganligi va xalqaro tashkilotlar tomonidan o‘tkazilayotgan so‘rovarda aksariyat islohotlar o‘z aksini topmayotganligi oqibatida ustuvor xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasi quyi pog‘onalarda qolmoqda. Bu hol, kelgusida mazkur masalaga jiddiy yondoshuv lozim ekanligini anglatar edi.

Prezidentning 2019 yil 7-martdagи “Xalqaro reyting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”gi PF-5687-sonli Farmoni ayni maqsadlarni ko‘zlaydi. Farmonga muvofiq hozirda O‘zbekistonda turli sohalarida jahon hamjamiyatida reyting va indeks ko‘rsatkichlarini ko‘tarishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mamlakat imiji va uning xalqaro reyting hamda indekslardagi o‘rnini yanada yuksaltirish masalasiga doir ustuvor yo‘nalishlar sifatida quyidagilar belgilab olingan:

- ✓ O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq ustuvor siyosiy va huquqiy reyting va indeks ko‘rsatkichlarda O‘zbekiston o‘rnini yaxshilash.
- ✓ O‘zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imijini targ‘ib qilish uchun xalq diplomatiyasi vositalarini rivojlantirish va joriy etish.
- ✓ O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar va o‘zgarishlarni xalqaro maydonda faol va keng yoritish.
- ✓ Milliy raqamli diplomatiyani rivojlantirish.
- ✓ Turizmni rivojlantirishga xalaqit berayotgan omillar va sharoitlarni aniqlash maqsadida xorijiy investorlar va turistlar o‘rtasida ijtimoiy so‘rovlar tashkil etish va o‘tkazish.
- ✓ Siyosiy xavflarning iqtisodiyot, moliya va tashqi savdo sohalariga ta’sir qiluvchi omillarini aniqlash, shuningdek, ularning ta’sirini kamaytirish.
- ✓ O‘zbekiston Respublikasining ijobiy imijini ilgari surishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish va qo‘llashda hamkorlik qilish uchun xorijiy konsalting kompaniyalarini jalb qilish.
- ✓ O‘zbekiston to‘g‘risida ijobiy ma’lumotlarni tarqatish, o‘zbek brendlarni reklama qilish, respublikaning xalqaro maydondagi imijini ilgari surish maqsadida mashhur xorijiy blogerlar bilan aloqalarni o‘rnatish va rivojlantirish.
- ✓ Milliy brendlarni ommalashtirish va mamlakatning ijobiy imijini targ‘ib qilish maqsadida O‘zbekiston xalq amaliy san’ati xalqaro festivallarini tashkillashtirish, shuningdek, chet elda o‘tkaziladigan xalq ijodiyoti festivallari va yarmarkalarida faol ishtirop etish.
- ✓ YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga O‘zbekistonning yangi obyektlarini kiritish va boshqalar.

Prezidentimizning 2020 yil 2 iyunda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishslashning yangi mexanizmini joriy qilish to‘g‘risida”gi farmoni yurtimizda bu yo‘nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim dasturilamal bo‘ldi. Mazkur Farmonga muvofiq mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro maydondagi imijini mustahkamlash, davlat organlari va tashkilotlarida xalqaro reyting va indekslar bilan ishslashni yangi mexanizmlarini joriy qilish maqsadida xalqaro reyting va indekslar

bilan ishslash respublika Kengashi tashkil etildi. Kengash Parlament nazorati ostida bo‘lishi va Senat raisi unga rahbarlik qilishi belgilab qo‘yildi.

Bu o‘rinda, shuni ham alohida ta’kidlash kerakki, mazkur masalaga doir so‘nggi besh yil ichida qabul qilingan “O‘zbekistonning xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2019 y., 25-fevral, PQ-4210сон), “Xalqaro ryeiting va indekslarda O‘zbekiston Respublikasining o‘rnini yaxshilashga oid chora-tadbirlarni tizimlashtirish to‘g‘risida”gi (2019 y., 7-mart, PF-5687-сон), “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash hamda davlat organlari va tashkilotlarida ular bilan tizimli ishlarning joriy qilish to‘g‘risida”gi (2020 y., 2-iyun, PF-6003-сон), “Xalqaro ryeiting va indekslar bilan ishslashda ilmiy salohiyat va amaliy faoliyat uyg‘unligini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi (2022 y., 18-may, PQ-246-сон) farmon va qarorlari huquqiy negiz bo‘lib xizmat qilib kelmoqda

Yangilanayotgan O‘zbekistonning xalqaro maydondagi imijiga ijobiy ta’sir etgan omillar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 sentabrda BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasi va 2020 yil 23 sentabrdagi 75-sessiyasidagi ma’ruzasida mintaqaviy va xalqaro xarakterga ega bo‘lgan g‘oya va takliflarni ilgari surgani hamda mazkur takliflarni xalqaro maydonda e’tirof etilishini alohida ta’kidlab o‘tish joiz.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining xalqaro reyting va indekslardagi o‘rnini yaxshilash va uning xalqaro imijini yuksaltirish borasida amalgam shiralayotgan tadbirlar hamda Prezidentimizning xalqaro minbarlardan turib ilgari surgan takliflari hamda tashabbuslari yurtimizning jahon maydonidagi imijining mustahkamlanishiga va reytingining yuqorilab borishiga samarali ta’sir ko‘rsatadi. Davlat organlari bilan birgalikda muntazam ravishda davlat va jamiyat hayotining xalqaro reyting va indekslar, ularning tarkibiy indikatorlarida baholanadigan sohalariga oid davlat siyosatidagi o‘zgarishlar va islohotlar, hech shubhasiz, 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Taraqqiyot strategiyasi doirasida katta yutuqlarga erishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanshdan – milliy yuksalish sari. 4-tom. –T: “O‘zbekiston”, 2020 y.
3. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T: “O‘zbekiston”, 2021 y.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 29 yilliga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlagan nutqi. - “Xalq so‘zi”, 1-sentyabr, 2020 y.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida so‘zlagan nutqi. (23.09.2020 yil). - “Yangi O‘zbekiston” gazetasi, 2020 yil, 24-sentyabr soni.